

## O'ZBEK BOLALAR ADABIYOTI SHAKLLANISHIDA JADID IJODKORLARINING O'RNI

Yallaqayev Zoyir Yusupovich

Termiz davlat universiteti o'qituvchisi.

tel: +998996714840 [zoyiryallaqayev@gmail.com](mailto:zoyiryallaqayev@gmail.com)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15797471>

**Annotatsiya.** Maqola XX asr boshlarida Turkistonda milliy uyg'onish va ma'rifatparvarlik g'oyalari asosida shakllangan jadidchilik harakatining o'zbek bolalar adabiyotidagi o'rnini tahlil qiladi. Jadid ijodkorlari, xususan, Abdulla Avloniy, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Munavvarqori Abdurashidxonov va boshqalarning bolalar adabiyotini rivojlantirishdagi faoliyati, darsliklar, she'riy va nasriy asarlar, matbuot, dramaturgiya va tarjimachilikdagi hissasi o'rganiladi.

**Kalit so'zlar:** Jadidchilik, bolalar adabiyoti, milliy uyg'onish, ma'rifatparvarlik, darsliklar, dramaturgiya, tarjimachilik

**Annotation.** This article analyzes the role of the Jadid movement, rooted in national awakening and enlightenment ideals in early 20th-century Turkestan, in shaping Uzbek children's literature. It explores the contributions of Jadid intellectuals, such as Abdulla Avloniy, Hamza Hakimzoda Niyoziy, and Munavvarqori Abdurashidxonov, in developing children's literature through textbooks, poetry, prose, press, drama, and translations. Their works instilled national identity, patriotism, and moral values in the younger generation. The article examines challenges faced by Jadid children's literature, including publishing and political constraints, and evaluates its significance in contemporary Uzbek children's literature. The study highlights the enduring relevance of the Jadid legacy in strengthening national spirit and proposes directions for future research, emphasizing the need for deeper exploration of Jadid drama and translation efforts.

**Keywords:** Jadid movement, children's literature, national awakening, enlightenment, textbooks, drama, translation.

XX asr boshlarida Turkistonda milliy uyg'onish va ma'rifatparvarlik g'oyalari asosida shakllangan jadidchilik harakati o'zbek adabiyoti va ta'lif tizimida tub o'zgarishlarni boshlab berdi. Jadid ijodkorlari, xususan, Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Sadreddin Ayniy, Munavvarqori Abdurashidxonov va Abdurauf Fitrat kabi ziyorilar bolalar adabiyotini milliy o'zlikni mustahkamlash, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar singdirish va zamонавиy bilimlarni yoyish vositasi sifatida ko'rdilar. Bolalar adabiyoti ular uchun nafaqat yosh avlodni tarbiyalash vositasi, balki jamiyatning kelajagini qurishda muhim poydevor edi.

Ushbu maqola jadid ijodkorlarining bolalar adabiyotidagi faoliyatini, ularning she'riy, nasriy, dramatik asarlari, darsliklari, matbuotdagi ishtiropi va tarjimachilikdagi hissasini kengroq tahlil qiladi.

Jadidchilik harakati XIX asrning so'nggi choragi va XX asr boshlarida Turkiston jamiyatini modernizatsiya qilish, xalqni savodli va ma'rifatli qilish maqsadini ko'zlagan edi.

Bolalar adabiyoti bu jarayonda muhim o'rinn tutdi, chunki yosh avlod tarbiyasi millatning kelajagini belgilovchi omil sifatida qaraldi. Jadidlar bolalar adabiyotini faqat o'quv vositasi sifatida emas, balki yoshlar qalbida vatanparvarlik, axloqiy qadriyatlar va milliy o'zlikni

shakllantirish vositasi sifatida ko‘rdilar. Bu davrda bolalar adabiyoti “usuli jadid” maktablarining ochilishi bilan birga rivojlanib, o‘zbek adabiyotidagi yangi bir qirra sifatida maydonga chiqdi<sup>1</sup>

Jadidlar bolalar adabiyotidagi asarlarida soddalik va tushunarlikka alohida e’tibor qaratdilar. Ular bolalar yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda she’r, hikoya, masal va darsliklar yaratdilar. Masalan, Abdulla Avloniy “Birinchi muallim” va “Ikkinchi muallim” darsliklarida bolalar uchun ixcham she’rlar va hikoyalar orqali vatanseverlik, mehnatkashlik va halollik kabi qadriyatlarni singdirishga harakat qildi.<sup>2</sup>

Jadid ijodkorlari bolalar adabiyotini rivojlantirishda yangi usuldagi maktablar uchun darsliklar va alifbolar yaratishga katta e’tibor berdilar. Bu darsliklar nafaqat savodxonlikni oshirishga, balki bolalarda milliy o‘zlik, axloqiy qadriyatlar va zamonaviy bilimlarni shakllantirishga xizmat qildi. Tadqiqotchilarning fikricha, jadidlar ellikdan ortiq alifbo va o‘qish kitoblarini nashr etdilar, bu esa bolalar adabiyotining tizimli shakllanishiga zamin yaratdi.<sup>3</sup>

Saidrasul Aziziyning “Ustodi avval” (1902) alifbosi o‘zbek bolalar adabiyotidagi ilk muhim darsliklardan biridir. Bu kitobda sodda she’rlar va didaktik hikoyalar orqali bolalar tafakkuriga mos ta’lim berildi.<sup>4</sup> Munavvarqori Abdurashidxonov “Adibi avval” (1907) va “Adibi soniy” (1909) darsliklarida xalq she’rlari va masallarni bolalar uchun qayta ishlagan holda taqdim etdi. Bu asarlar o‘zbek tilidagi ta’limni mustahkamlashga xizmat qildi.<sup>5</sup> Abdulla Avloniyning “Birinchi muallim” (1910) va “Ikkinchi muallim” (1912) darsliklari bolalar adabiyotidagi eng muhim yutuqlardan biri bo‘ldi. Uning “Maktabga da’vat” she’ri bolalarni ilm olishga undaydi:

Boqdi gunash panjaradan bizlara,  
Yotma deyur barcha o‘g‘il-qizlara.<sup>6</sup>

Jadid ijodkorlari bolalar adabiyotini ommalashtirishda matbuotdan keng foydalandilar. 1919-yilda Samarqandda nashr etilgan “Bolalar yo‘ldoshi” jurnalni bolalar uchun ilk maxsus nashrlardan biri bo‘ldi. Bu jurnal o‘quvchilarning o‘zлari tomonidan tahrir qilinib, yoshlarni ijodiy faoliyatga jalb qildi. Shu bilan birga, “Yosh sharq” (1919), “Bolalar dunyosi” (1921) va “Sharq chechagi” kabi jurnallar bolalar adabiyotining rivojlanishida muhim rol o‘ynadi.

“Bolalar dunyosi” jurnalida Cho‘lponning “Kapalak” she’ri, Majid Usmonning “Qimmatli tortiq” hikoyasi kabi asarlar chop etildi. Bu asarlar bolalar tafakkuriga mos soddalik va badiiy tasvirlar bilan ajralib turardi.

“Yosh kuch” (1929) jurnalni bolalarni faqat o‘quvchi emas, balki yozuvchi sifatida ishtirok etishga undadi. Jurnal murojaatnomasida shunday deyilgan: “Jurnalga mushtariy bo‘lishingiz yetmaydi, unga yozuvchi bo‘lib, she’r, hikoyacha, maqolalar berib turish kerak”.<sup>7</sup>

Jadid ijodkorlari bolalar adabiyotidagi dramaturgiyani rivojlantirishda ham muhim qadamlar tashladilar. G‘ulom Zafariyning “Bahor”, “Binafsha”, “Quyon” va “Tilak” kabi bir pardali pyesalari bolalar dramaturgiyasining dastlabki namunalari sifatida alohida ahamiyatga ega. Bu asarlar bolalar hayotidan olingan bo‘lib, xalq kuy-qo‘shiqlaridan va o‘yin usullaridan foydalangan holda sahnaviy ta’sirchanlikka erishdi.

<sup>1</sup> Barakayev R. (2004) O‘zbek bolalar adabiyoti va Abdulla Avloniy ijodi. T., Fan, 2004. 34-b

<sup>2</sup> Avloniy A. (1910) Birinchi muallim. T., Matbaa-i Islomiya, 1910. 12-b.

<sup>3</sup> Barakayev R. (2004) O‘zbek bolalar adabiyoti va Abdulla Avloniy ijodi. T., Fan, 2004. 45-b.

<sup>4</sup> Barakayev R. (2004) O‘zbek bolalar adabiyoti va Abdulla Avloniy ijodi. T., Fan, 2004. 46-b.

<sup>5</sup> Munavvarqori Abdurashidxonov. (1907) Adibi avval. Samarqand, O‘zbek nashriyoti, 1907. 8-b.

<sup>6</sup> Avloniy A. (1912) Ikkinchi muallim. T., Matbaa-i Islomiya, 1912. 15-b.

<sup>7</sup> Ramzi M. Armug‘on // Yosh kuch. .1929. — № 1. — B. 1.

Abdulla Qodiriyning “Tayoq maktabi” hikoyasi esa bolalar adabiyotidagi tanqidiy yondashuvni namoyon qildi. Bu hikoyada eski maktab tartiblari, o‘qitish usullarining qoniqarsizligi va domlalarning qattiqqo‘l munosabati fosh qilinadi. Hikoyadagi Muxtor obrazi orqali bolalar dunyosidagi ijtimoiy muammolar yorqin tasvirlanadi.

Jadid ijodkorlari bolalar adabiyotini boyitish uchun xorijiy adabiyotlardan keng foydalandilar. Rus adabiyotidagi Ivan Krilov, Lev Tolstoy va jahon adabiyotidagi Hans Christian Andersennenning asarlari o‘zbek tiliga tarjima qilindi va bolalar adabiyotidagi axloqiy tarbiyani mustahkamladi. Abdulla Avloniy Krilovning “Maymun ila ko‘zoynak”, “Tulki ila qarg‘a” kabi masallarini “Maktab gulistoni” kitobida nashr etdi.

Shu bilan birga, Andersennenning “Margaritka” va “Qush qo‘srig‘i” hikoyalari “Sharq chechagi” jurnalida chop etilib, bolalar adabiyotini universal qadriyatlar bilan boyitdi. Sadriddin Ayniy va Abdulla Qodiriyning bolalar uchun hikoyalari ham rus va jahon adabiyotidagi ilg‘or an’analardan ta’sirlangan edi.

Jadidlar bolalar adabiyotida muhim yutuqlarga erishgan bo‘lsalar-da, bir qator muammolar rivojlanishni chekladi. Nashrlarning cheklanganligi, bosmaxonalar sonining kamligi va 1920-yillardan keyingi Sovet repressiyalari jadid faoliyatiga to‘sqinlik qildi. Shu bilan birga, asarlarning ko‘pincha didaktik xarakterga ega bo‘lishi ijodiy xilma-xillikni chekladi.

Yuqorida aytilgan fikrlardan kelib chiqib, shuni ta’kidlash joizki, bolalar adabiyotining shakllanishida jaded davri ijodkorlarining roli beqiyosdir. Ayniqsa, jadidlar bolalar adabiyotini milliy o‘zlikni shakllantirish va ma’rifatni targ‘ib qilish vositasi sifatida rivojlantirdilar. Ularning sa’y-harakatlari tufayli darsliklar, matbuot va dramatik asarlari orqali bolalar adabiyoti tizimli shakl oldi. Aynan shu davrda bolalar dramaturgiysi va tarjimachilikning paydo bo‘lishi va rivojlanishiga tamal toshi qo‘yildi. Aytish mumkinki, jadid merosi zamonaviy o‘zbek bolalar adabiyotidagi milliy ruhni mustahkamlashda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Jadid ijodkorlari o‘zbek bolalar adabiyotining poydevorini qo‘yib, uni milliy uyg‘onish va ma’rifatparvarlik g‘oyalari asosida rivojlantirdilar. Ularning darsliklari, she’r va hikoyalari, matbuotdagi faoliyati, dramatik asarlari va tarjimachilikdagi sa’y-harakatlari bolalarda milliy o‘zlik, vatanparvarlik va axloqiy qadriyatlar shakllantirdi. Nashriy, moliyaviy va siyosiy muammolar jadid faoliyatini cheklagan bo‘lsa-da, ularning merosi bugungi o‘zbek bolalar adabiyotidagi milliy ruhni mustahkamlashda davom etmoqda.

Jadid bolalar adabiyotining kelajakdagi tadqiqotlari bir nechta yo‘nalishda rivojlanishi mumkin.

Birinchidan, dramaturgiya sohasidagi jadid asarlарining sahnaviy imkoniyatlari va zamonaviy talqinlari o‘rganilishi kerak.

Ikkinchidan, tarjimachilik faoliyati va uning bolalar adabiyotidagi ta’siri chuqurroq tahlil qilinishi lozim.

Uchinchidan, jadidlarning darsliklari va matbuotidagi didaktik yondashuvlar zamonaviy pedagogika nuqtai nazaridan qayta ko‘rib chiqilishi foydali bo‘ladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Avloniy A. Birinchi muallim. T., Matbaa-i Islomiya, 1910. 50-b.
2. Avloniy A. Ikkinci muallim. T., Matbaa-i Islomiya, 1912. 60-b.
3. Avloniy A. Maktab gulistoni. T., Matbaa-i Islomiya, 1915. 70-b.
4. Barakayev R. O‘zbek bolalar adabiyoti va Abdulla Avloniy ijodi. T., Fan, 2004. 100-b.
5. Hamza Hakimzoda. Yengil adabiyot. Samarqand, O‘zbek nashriyoti, 1916. 40-b.

6. Karimov N. XX asr adabiyoti manzaralari. Toshkent, “0 ‘zbekiston”, 2008.
7. Munavvarqori Abdurashidxonov. Adibi avval. Samarqand, O’zbek nashriyoti, 1907. 30-b.
8. Qosimov B. Milliy uyg‘onish va o‘zbek adabiyoti. T., Sharq, 2004.
9. Yoqubov H. Bolalar adabiyoti estetikasi. T., Sharq, 2010. 100-b.